

SHE'RIYATIDA ESKIRGAN SO'ZLARNING QO'LLANILISHIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

TOSHPO'LATOVA Gavhar,
Kattaqo'rg'on tumani 2-sonli
politexnikumi texnik xodimi,
Navoiy davlat universiteti talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov va O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she'riyatida eskirgan qatlam leksikasining qo'llanilish xususiyatlari tadqiqiga ayrim mulohazalar bayon etilgan. Mualliflarning badiiy mahorati misolida arxaizm va tarixiy so'zlarning lirik matn mazmunini boyitish, davr ruhini ifodalash va emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlikni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida har ikki ijodkorning til boyligidan foydalanishdagi o'ziga xos uslubiy yondashuvlari qiyosiy o'rganilib, eskirgan so'zlarning zamonaviy she'riyatdagi estetik vazifalari yuzasidan ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Eskirgan so'zlar, arxaizm badiiy uslub, leksik qatlam, ko'chma ma'no, poetik nutq, ekspressivlik, ilmiy til, adabiy til.

Аннотация. В данной статье исследуются особенности использования устаревшей лексики в поэзии Героя Узбекистана Абдуллы Орипова и Народного поэта Узбекистана Икбола Мирзо. На примере художественного мастерства авторов анализируется роль архаизмов и исторических слов в обогащении содержания лирического текста, выражении духа эпохи и придании эмоциональной и выразительной окраски. В ходе исследования сравнительно изучаются специфические стилистические подходы обоих творцов к использованию богатства языка, и даются научные выводы об эстетических функциях устаревших слов в современной поэзии.

Ключевые слова: устаревшие слова, архаизм, художественный стиль, лексический слой, переносимое значение, поэтическая речь, выразительность, научный язык, литературный язык.

Abstract. This article studies the features of the use of obsolete vocabulary in the poetry of the Hero of Uzbekistan Abdulla Oripov and the People's Poet of Uzbekistan Iqbol Mirzo. Using the example of the authors' artistic skills, the role of archaisms and historical words in enriching the content of the lyrical text, expressing the spirit of the era, and providing emotional and expressive coloring is analyzed. During the study, the specific stylistic approaches of both creators to using the wealth of language were comparatively studied, and scientific conclusions were given on the aesthetic functions of obsolete words in modern poetry.

Keywords: Obsolete words, archaism, artistic style, lexical layer, portable meaning, poetic speech, expressiveness, scientific language, literary language.

KIRISH

Tildagi mavjud soʻzlar isteʼmol doirasiga koʻra xilma- xil boʻladi. Ularning asosiy qismini koʻpchilik aholi bir xil qoʻllasa, baʼzilarini faqat muayyan kasb egalari yoki maʼlum hududda yashaydigan kishilargina qoʻllaydi. Shuning uchun oʻzbek tili leksikasini isteʼmol doirasiga koʻra, asosan, **2 qatlamga** ajratish mumkin:

1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlam,

2. Ishlatilish doirasi chegaralangan qatlam.

Ishlatilish doirasi chegaralanmagan soʻzlar oʻzbek tilida soʻzlashuvchi barcha kishilar uchun birdek tushunarli boʻlgan leksemalar. Masalan: *yer, suv, osmon*.

Ishlatilish doirasi chegaralangan soʻzlar- *dialektizmlar, kasb-hunarga oid ata-malar, arxaizm, istorizmlar*.

Arxaizm- eskilik boʻyogʻi bor til birligi. Tilda faol ishlatiladigan zamonaviy narsa va hodisalarning eskirib qolgan nomi. Hozirgi paytda mavjud boʻlgan voqelikning eskirgan shakli. Shunga koʻra arxaizmlar ikkiga boʻlinadi.

Lugʻaviy arxaizmlar- lugʻaviy birliklardagi turi.

Grammatik arxaizmlar- grammatik hodisalardagi turi (qoʻshimcha).

Leksik arxaizmlar- hozirgi paytda mavjud voqelikning eskirgan nomi yoki, aksincha, hozirgi tilda mavjud boʻlgan soʻzning eskirgan maʼnosi. Masalan, dushman-

hozirgi nomi, yog‘iy- arxaizm; qo‘shin- hozirgi nomi, cherik- arxaizm. „Leksik arxaizmlarning yuzaga kelishida sinonim so‘zlar orasidagi uslubiy munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Birining faollashuvi, ikkinchisining passivlashuviga, arxaiklashuviga olib keladi”¹,

Grammatik arxaizmlar- tilning grammatik birliklarida, asosan, qo‘shimcha morfemalarda va shu morfemalar qatnashgan grammatik shakllarda hosil bo‘ladi. Masalan, ma‘lumki, tilning sifatdosha shakllari qadimgi turkiy tilda „-mish”, „-duq”, „-duk” morfemalari vositasida yasalgan. Hozir esa bu vazifani „-gan” affiksi bajaradi, ushbu morfemalar grammatik arxaizmga misol bo‘ladi. Badiiy tahlilda biror shoir she‘riyatini tahlilga tortganda, uning so‘z qo‘llash mahoratiga alohida urg‘u qaratiladi. Shoir asarida ishlatilgan so‘zlarning ahamiyati shu ijod mahsulining ahamiyatini, tasirchanlik jihatini oshirib beradi. Shu sababli asar tilining qay darajada ekanligi, unga lingvistik jihatdan yondashganda yaqqol aks etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Biz ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yetuk namoyondalari, O‘zbekiston xalq shoirlari Abdulla Oripov, Iqbol Mirzo she‘riyati haqida mulohaza yuritishga harakat qilamiz. Shoirlar she‘riyatida ishlatilgan so‘zlarning eskirgan ko‘rinishlarini aniqlash, qanday eskirgan so‘zlarning qo‘llanganiga e‘tibor berish, ularning misralarda qanday joziba baxsh etganiga to‘xtalib o‘tamiz. Bu kabi so‘zlarning bugungi kundagi ko‘rinishi qaysi lug‘aviy birlik bilan ifodalanishiga ahamiyat qaratish, ularning o‘zbek tili leksikalogiyasidagi o‘rniga e‘tibor beramiz.

Hozirgi o‘zbek she‘riyatida ham arxaik leksemalardan unumli foydalaniladi. Har bir shoir albatta o‘z ijodida arxaizmlarni qo‘llaydi. Chunki arxaizmlar o‘zining zamonaviy sinonimlariga nisbatan fonetik jihatdan ham jarangdor, ma‘no jihatdan ham ta‘sirchan. Bu o‘z navbatida she‘riy asarning jozibali, ta‘sirchan bo‘lishini ta‘minlaydi. A.Oripov she‘riyatida ham arxaizmlardan uslubiy voista sifatida qo‘llanilgan:

Aqling butun bo‘lsa, to‘rt muchang omon,

¹ Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.2010.20 bet.

Hargiz iltimosga kuning qolmasin.

Mucha eskirgan soʻz sifatida “kishi aʼzosi” (OʻTIL. 2.657.) maʼnosini ifodalaydi.

Ulugʻ otdoshlarim maqomi yuksak,

Men shogird erurman garchand alarga.

Har nechuk, bir gapni aytmogʻim kerak:

Oson boʻlmagan hech Abdullalarga.

Misralarni oʻqiganda tarixda oʻz ezgu amallari, ilmi yoki ijodi bilan nom qoldirgan Abdulla ismli shaxslarni xotitlaydi inson. Erur toʻliqsiz feʼli va alar koʻrsatish olmoshining arxaik shakli, har nechuk kabi soʻzlar matnga oʻziga xos ulugʻvorlik baxsh etish bilan birga oʻquvchi koʻz ongida oʻtmishni gavdalandiradi

Ikkinchi jahon urushining insoniyat boshiga solgan kulfatlari oʻzbek xalqini ham qaqshatgan. Qancha xonadonlarda ayollar yesir, bolalar yetim qolgan, qancha yosh yigitlarning umri xazon boʻlgan. Mazkur sheʼr - ayol sadoqatiga qoʻyilgan haykal. Sheʼr xalqning yuksak bahosiga sazovor boʻlgan. Shu sheʼrda qoʻllangan bir soʻzga eʼtiboringizni qaratmoqchimiz:

Siz-chi, ey sadoqat satridan nolib,

Nadomat komida qolganlar ayting.

Oʻzini ming bitta bozordan olib,

Ming bitta bozorga solganlar ayting. [Ayol. 28-b.]

Kom - eski kitobiy soʻz. “Ogʻizning yuqori tish tanglaydan halqumgacha boʻlgan qismi, ich (qaʼr) (koʻpincha ajdar dev kabi afsonaviy maxluqlarning oʻgʻzi haqida)”[OʻTIL.2.391-b.] ”Nadomat komi” birikuvida kom koʻchma maʼnoda “qaʼri, tubi” maʼnosini ifodalaydi.

Oʻzbekiston xalq shoirlari Iqbol Mirzo sheʼriyati haqida mulohaza yuritar ekanmiz. Shoir sheʼriyatida ishlatilgan soʻzlarning eskirgan shakllari koʻplab oʻrinda uchrashiga guvoh boʻlamiz. Jumladan:

Erta titraydi olam etagi,

Dashtlarni to'ldirib uchadi chorlov,
-O'-ho'-o'v, uxlaganing yetadi,
Turuk **budunim**-o-vv.

Budun- „xalq, ulus, el”. („Cho'pchak" 2.157- bet).

Makr **birlan**, qahr **birlan** ko'zimzni boyladilar,
Bizni suyib, suymadilar, ozod qo'yib qo'ymadilar,
Dilimizni barmog'ida olma kabi o'ynadilar. („Farg'onacha" 2.139- bet).

Birlan- eski o'zbek tilida ko'makchi so'z turkumiga mansub bo'lib, uning *birla*, *birlan*, *bila*, *bilan* ko'rinishlari bo'lgan. „Bu ko'makchi dastlab *birla* formasida qo'llangan bo'lib, qolgan formolari keyinchalik vujudga kelgan.”² Makr *birlan*, qahr *birlan* birikmalarida vosita ma'nosida qo'llangan.

Istaysizmi- yo'qmi, **gardun** aylana,

Istaysizmi- yo'qmi, qaytib kelaman.

Sog'inmagan ko'zingizdan aylanay,

Istaysizmi- yo'qmi, sizni sevaman. („Istaysizmi- yo'qmi" 2.13- bet).

„**Gardun**” so'zi leksik arxaizmga mansub bo'lib, aynan „*osmon gumbazi*” (O'TIL 1.187- bet) ma'nosini bildiradi.

Istorizmlar - o'tmishda ishlatilgan, lekin bugungi kunda qo'llanilmay, iste'mol doirasidan chiqqan leksemalar. O'tmish voqeligini nomlash zaruriyati bilangna hozirgi tilda ishlatiladigan so'zlar.

Istorizm eskirgan so'z tiplaridan biridir. Istorizmlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ularning shakli ham, anglatadigan ma'nosi ham eskiradi. Istorizmlarning arxaizmlardan farqi ham ana shunda. „Tarixiy leksema bildiradigan narsa-hodisa iste'moldan chiqib, o'tmish voqeligiga aylanganligi sababli, bu leksemaning ko'pchiligi hozirgi davr kishisi uchun notanish bo'lishi mumkin. Tarixiy

² Tarixiy grammatika. T. "Sharq". 2008.286- bet.

leksema hozirgi o'zbek tilida zarurat taqazosiga ko'ra qo'llanadi. Xususan, tarixga oid ilmiy asarlarda bunday leksema cheklanmagan darajada ishlatilishi mumkin''³.

Xoqon edik, qalqonimiz go'daklarga ermak bo'ldi,

Sulton edik, davronimiz o'zimizga ertak bo'ldi

Balokash yor lashkarlari ming- ming bo'kdi, **lak-lak** bo'ldi

Biz shams kabi yerga botdik, ul oy esa yuksak bo'ldi.

Xoqon- „o'rta asr turkiy xalqlardagi yirik davlat boshliqlarining unvoni va shu unvonni olgan shaxs; ulug' xon (O'TIL.2.335).

Sulton- „ba'zi sharq mamlakatlarida amir, xon, shohlar unvoni (O'TIL.2.83).

Lak- lak- „yuz- minglarcha, beaded, ko'p, son- sanoqsiz, behisob'' (O'TIL.1.426).

Sen kecha **xonzoda** eding bepisand,

Qul edim oyog'u ko'ngli kishanband

Hazratdan qolgan ish dostonin band-band

So'zma- so'z qaytadan bitib o'tyapman.

(“O'tyapman” 2. 2013. 205-bet).

Xonzoda- „xonning farzandi, o'g'li yoki qizi, xon avlodi (O'TIL.2.332).

Qul- „ekspuatatorlik jamiyatning ilk davrlarida xususiy mulk, mol qatori olib-sotilgan, bus- butun xo'jayinga ega bo'lgan, hech qanday haq-huquq va molu- mulkka ega bo'lmagan xizmatkor” (O'TIL. 2.615)

XULOSA

Umuman olganda, Iqbol Mirzo she'rlarida ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralangan qatlam so'zlar anchagina ishlatilgan. Bunday so'zlardan foydalanish

³ Sayfullayeva R.va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.2006. 121- bet.

orqali shoir tarixiy davr muhiti va mahalliy soʻzlashuv jarayonini yoritib berishga erishgan. Shuningdek, misra jozibadorligi oshirilgan. A. Oripov va Iqbol Mirzo sheʼriyatidagi leksik-semantik izlanishlar oʻzbek sheʼriy tilining evolyutsion taraqqiyotini koʻrsatuvchi muhim koʻrsatkichdir. Eskirgan soʻzlarning lirik matndagi mahorat bilan qoʻllanilishi asarning badiiy qimmatini belgilovchi asosiy uslubiy vositalardan biri boʻlib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Орипов А. Ранглар ва оҳанглар. Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2012. – В. 152.
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. T. SHARQ. 2019. – В. 783
3. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. T.:Sharq, 2007.367 b.
- 4.Iqbol Mirzo. Agar jannat koʻkda boʻlsa. T.:2010. 125 b.
5. Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili T. 2005. 271 b.
- 6.Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T.: Fan va texnologiya nashriyoti – 2009, 414 b.
- 7.Tarixiy grammatika. (Mualliflar jamoasi). T.: ”Sharq”. 2008.286- bet.
- 8.Oʻzbek tilining izohli lugʻati. (V jildlik). –Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat nashriyoti. 2006.
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/abdulla-oripov-asarlari-lingvopoetikasi>